

LUG'ATLARDA O'SIMLIK NOMLARINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI

*Termiz davlat universiteti talabasi
Boyulova Sevvara Muhiddin qizi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Devonu lug`otit turk” va “At-tuhfa Asarlarida o`simlik nomlarining kelib chiqishi va fonetik, fonologik jihatdan tasnif etilgani ochib berilgan. Unda o`simlik nomlarining ma`nolari va turkiy qavmlarda qanday atalgani va fonemalarning o`zgarishi natijasida so`z ma`nosi ham o`zgarib ketishi haqida birqancha ma`lumotlarga ega bo`lamiz.

Kalit so'zlar: Ensiklopedik lug`at, filologik lug`at, bitik, turkiy qavmlar, At-tuhfa, Devonu lug`otit turk...

Annotation. This article reveals the origin and phonetic and phonological classification of plant names in "Devonu Lugotit Turk" and "At-Tuhfa Works". We will have some information that the meaning of `z will also change.

Keywords: one-semeli, many-semeli, amen words, scientific thoughts...

Lug`at-muayyan tilda hududiy va ijtimoiy lahjasida mavjud bo`lgan yoki biror-bir yozuvchi asarlarida uchraydigan so`zlar yig`indisi hisoblanadi. Lug`atlar ma`naviy va madaniy sohada keng o`rin egallaydi va lug`atlarda xalqning ma`lum bir davrda egalla- gan bilimlari aks etadi. Lug`atlar bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi, o`quvchini o`z va o`zga tillardagi so`zlar bilan tanishtiradi. Lug`atlar juda qadim davrlardayoq paydo bo`lgan. Lug`atlarning asosiy maqsadi til birligi hisoblangan so`zning ma`nolarini ochib berishdan iboratdir. Tilshunosligiizda lug`atlarni biz 2guruhga bo`lib o`rganamiz: 1) Ensiklopedik (qomusiy) va 2) filologik lug`atlar. Ensiklopedik qomusiy lug`at o`zida barcha universal ensiklopediya va ba`zi soha ensiklopediyasi sohalar bo`yicha nazariy hamda amaliy bilimlarni saqlaydi. Ensiklopedik lug`atlarga misol qilib “Devonu lug`otit turk”, “At-tuhfa” kabi asarlarni olishimiz mumkin. “Devonu lug`otit turk” asari XI asrda Mahmud Koshg`ariy tomonidan yaratilgan. Asarning o`zbekchasi (Turkiy so`zlar devoni”) 1071-1072-yillarda yozilgan. “Devonu lug`otit turk” da shaharlar, qishloqlar, dengiz, suv, uy-ro`zg`or buyumlari qushlar, hayvonlar, astronomik ma`lumotlar, qabila va urug`nomlari keltirilgan. Ayniqsa o`simlik nomlari lingvistik jihatdan batafsil keltirilgan. Bunda har so`zning ma`nolari, polisemiya, omonimiya, sinonim, antonim so`zlar chuqur tahlil qilinadi. Tovushlar fonemalarning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho`ziq va qisqa unli, ularning talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan.

Yana bir ikkinchi asarimiz “At-tuhfa”asari.Bu asar XIV asrda Misrda yozilganbo`lib uni yozgan muallifning ismi ma`lum emas.Asar mamluk-qipchoq tilida yozilgan.Bu til XIII-XV asrlarda Misr va Suriya savdogarlari,davlat xiz matchilari foydalanidigan til edi.

Tilshunos olim V.I.Belyaev “Devonu lug`otit turk”asari haqida shunday yozadi: Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak,chunki u kitoblardan olib yozilmagan ,balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan.

“Devonu lug`otit turk”asarida “bitik”so`zi kitob ma`nosida kelgan.”At-tuhfa”asarida esa bitik o`simlik ma`nosida keltirilgan.Lekin shunga qaramay o`tgan asr davridan bitik ma`nosida biz kitobni tushunib kelganimiz. “At-tuhfa”asaida esa yalpiz o`simligining tarixiy muqobilini jalpiz deb beradi.Yalpiz va jalpiz so`zlari fonetik fonologik jihatidan birlashtiruvchi va farqlovchi belgilarga ega.Yalpiz va jalpiz so`zlarini fonologik jihatdan tasnif qilsak y va j fonemalari portlovchi, sirg`aluvchi, hosil bo`lish o`rniga ko`ra farqlanuvchi belgiga ega.J fonemasi til oldi, portlovchi ,y-fonemasi til o`rta,sirg`aluvchi belgilarga ega.Ularning birlashtiruvchi belgilari til paychalarining ishtirokiga ko`ra jarangliligidadir.Bundan tashqari “Devonu lug`otit turk” asarida keltirilgan “tavilg`uch va tavilquch” so`zlari ma`no jihatdan va hosil bo`lish usuliga ko`ra,tovush paychalarining ishtirokiga ko`ra farqlanuvchi belgilarga ega.Ma`no jihatdan “tavilg`uch”tarxun deyilgan bir daraxt, “tavilquch”esa qizil tol daraxti ma`nosini anglatadi.Tavilg`uch-umumiy o`simlik ya`ni daraxt hisoblangan.Tarxun daraxti ham,tol daraxti ham shifobaxsh hisoblangan.Qadimda turkiy qavmlar bu o`simliklardan ko`p foydalanishgan.Vaqt lar o`tishi bilan tarxun daraxti kamyob o`simlikka aylanishi natijasida va turkiy xalqlar asosan tol daraxtidan foydalangan.Davrlar o`tishi bilan turkiy tilda bu daraxtlarni farqlash uchun so`zlar tarkibidagi fonemalarni o`z shevasiga moslashtir gan bo`lishi mumkun.Mahmud Qoshg`ariy bu lug`atni tuzishdan oldin turkiy xalqlar tilini, shevalarini o`rganib chiqqan.

Abdujabbor Omonovning “O`zbek tilshunosligi tarixi”o`quv qo`llanmasi da Mahmud Qoshg`ariy o`sha davr fonetikasiga doir fikrlari turkiy tillar fonetikasi uchun qimmatli ekani.”Devon”da tovush almashishi, tovush tushishi, tovush orttirilishi kabi hodisalarni izohlagani keltiriladi.

“Devonu lug`otit turk”asarida keltirilgan “boy”so`zining lug`aviy ma`nosi yeyiladigan bir o`simlik ya`ni ot so`z turkumi ammo bu so`z sof adabiy tilimizda sifat trkumiga xos bo`lgan so`z hisoblanadi.”Boy” so`zi o`simlik ma`nosida turkiy xalqlarda “bo`y”tarzida ishlatilib fonetik o`zgarishlarda o`rta keng o` unlisining quyi keng o unlisiga almashishi natijasida o`zgarishlarga uchragan deb qarashimiz mumkun.Fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkunki,lug`atlar xalqimizning tarixini bizga tanishtiradi.So`z ma`nolari,sinonimlar,omonimlar bilan so`zligimizni boyitadi.”Devonu lug`otit turk va At-tuhfa”lug`atarida nafaqat bu ikki lug`atda boshqa

shu kabi lug'atlarda o`simlik nomlari tilimizda turli shaklda .shu jumladan fonetik, fonologik va leksik jihatdan o`zgarishlarga uchragan va xilma-xil variantlari mavjud.Bu esa ayrim tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.Bu kabi tushunarsiz bo`lgan bir-biriga o`xshash so`zlar tilshunoslarimiz tomonidan leksik , grammatik, fonetik, fonologik jihatdan tavsiflab beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.Qoshg'ariy "Devonu lug'otit-turk"G'afur G'ulom nomidagi matbaa-nashriyot uyi Toshkent 2017-yil 488-b
2. "At-tuhfa"
3. Rahimov S., Umurqulov B. HOZIRGI OZBEK ADABIY TILI //Toshkent: O`qituvchi. – 2003. – T. 220.
4. Umurqulov B. U. Hozirgi O`zbek Tili. – 2009.
5. S.Normamatov "Leksikografiya asoslari"
6. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.
7. www.net.ziyo.uz.